



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

**KENGASH YI'G'ILISHINING MAJLIS
BAYONIDAN KO'CHIRMA**

Toshkent sh.

№ 2026/12

2026 yil " 03 " iyul

Ishtirok etganlar:

Kengash a'zolari:

U. Muxtorov (masofadan)
M. Atadjanov (masofadan)
Y. Aizup (masofadan)
U. Axmedov (masofadan)
M. Ansell (masofadan)
S. Ayupova (masofadan)
K. Mangold (masofadan)
F. Tuinstra (masofadan)
O. Ulyanova (masofadan)
G. Chiladze (masofadan)

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

Taklif etilganlar:

Boshqaruv raisi:

A. Akbarjonov

Boshqaruv a'zolari:

A. Ergashev, U. Aminova, E. Goroxov,
O. Ekler.

Bankning bosh ofisi rahbarlari va
mutaxassisleri:

D. Sadirov, A. Islamov, A. Kenjayev,
J. Muminov, Y. Vershilo, A. Tsoy,
D. Shamirzayev, T. Norov, F. Xo'jayev.

Bank Kengashi yig'ilishida 11 nafar a'zo ishtirok etdi va Kengash yig'ilishining
kvorumi ta'minlandi.

Yig'ilish kun tartibi:

1. 2026-yil 1-iyun holatiga RWAni optimallashtirish bo'yicha asosiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to'g'risidagi hisoboti.
2. 2026-yil 1-iyun holatiga xodimlar bilan ishlash bo'yicha kompleks hisoboti.
3. 2026-yil 1-iyun holatiga tashqi qarzlar (qarz olish va kreditlar) to'g'risida hisoboti.
4. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi huzuridagi IT qo'mitasi to'g'risidagi nizomni ko'rib chiqish va tasdiqlash to'g'risida.

5. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Biznes-rejalashtirish siyosatiga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash haqida.
 6. Bankka nisbatan affillangan shaxslari bitimlar tuzishda oldindan rozilik berish to‘g‘risida.
 7. Mikro va kichik biznes bosh direktori lavozimini joriy etishni, shuningdek, mazkur lavozimga Norov Timyp Olimovich nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida.
 8. Chakana biznes bosh direktori lavozimini joriy etishni, shuningdek, mazkur lavozimga Xo‘jayev Feruz Mamadaminovich nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida.
 9. Xodimlar va tashkiliy rivojlanish departamenti direktori lavozimiga Ismoilov Shaxbozxon Kamolovich nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida.
 10. Bank Kengashi qoshidagi Risklar, yirik va affillangan bitimlar, komplayens-nazorat qo‘mitasining korporativ yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti.
 11. Bank Kengashi qoshidagi Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasining korporativ yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti.
 12. Bank Kengashi qoshidagi Audit qo‘mitasining korporativ yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti.
 13. Bank Kengashi qoshidagi Raqamlashtirish va kiberxavfsizlik qo‘mitasining korporativ yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti.
-

QAROR QILDI:

1. Qayd etilsinki, 2026-yil 1-iyun holatiga RWAni optimallashtirish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a‘zo, shundan:

“yoqlab” – 11 ta ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

2. 2026-yil 1-iyun holatiga xodimlar bilan ishlash bo‘yicha kompleks hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a‘zo, shundan:

“yoqlab” – 11 ta ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

3. 2026-yil 1-iyun holatiga tashqi qarzlar (qarz olishlar, kreditlar) to‘g‘risidagi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a‘zo, shundan:

“yoqlab” – 11 ta ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

4. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Axborot texnologiyalari qo‘mitasi to‘g‘risida nizom” tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a‘zo, shundan:

“yoqlab” – 11 ta ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

5. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Biznes-rejalashtirish siyosatiga kiritiladigan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar” tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a‘zo, shundan:

“yoqlab” – 11 ta ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 88-moddasiga muvofiq, Bankning kundalik xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida keyingi yillik umumiy yig‘ilishgacha bo‘lgan davrda Bankning affillangan shaxslari bilan tuzilishi mumkin bo‘lgan quyidagi bitimlarni amalga oshirishga ruxsat berilsin:

- Moliyaviy va g‘aznachilik operatsiyalari: banklararo depozit operatsiyalari va REPO operatsiyalari, xorijiy valyutani sotib olish va sotish (FX), qimmatbaho metallarni (oltin va kumush) sotib olish va sotish, mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyati (TIF) bo‘yicha arizalari asosida konversion operatsiyalar, davlat va boshqa qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar, valyutani sotib olish va sotish (TOD, TOM, SPOT), depozitlarni jalb qilish, Nostro va Loro vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish, fyucherslar, forvardlar, opsionlar, svoplar va boshqa hosilaviy moliyaviy vositalar (derivativlar) bo‘yicha bitimlar;

- To‘lov tizimlari bo‘yicha bitimlar: “SQB BILL” va boshqa tegishli to‘lov tizimlari doirasida xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar;

- Kredit va depozit operatsiyalari: banklararo bosh kelishuvlar, kredit shartnomalari, depozit shartnomalari;

- Bank xizmatlari: hisob-kitob-kassa xizmatlari ko‘rsatish, bank kafolatlarini taqdim etish, kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha bitimlar.

6.1. Ushbu qarorning 6-bandida ko‘rsatilgan bitimlarni amalga oshirishda quyidagi shartlarga qat’iy rioya etilsin:

- bitimlar Bank manfaatlarini ko‘zlagan holda bozor shartlari va bozor narxlarida, shuningdek, tasdiqlangan bank mahsulotlari shartlari hamda Bank xizmatlari uchun tasdiqlangan tariflarga muvofiq amalga oshirilishi;

- bozor shartlari va bozor narxlariga mos kelmaydigan bitim tuzish niyati mavjud bo‘lgan taqdirda, har bir bitim Bank Kengashi tomonidan alohida tartibda ko‘rib chiqilishi;

- har bir bitim bo‘yicha manfaatdorlik xususiyati va Bank uchun iqtisodiy samaradorlik Bank Boshqaruvi tomonidan doimiy monitoring qilib borilishi;

- affillangan shaxs bilan bitim tuzilishi natijasida Bankka zarar yetkazilgan taqdirda, Qonunning 90-moddasiga muvofiq, aybdor shaxslar yetkazilgan zararni to‘liq qoplash uchun shaxsan javobgar bo‘lishi.

6.2. Bunda yirik tavakkalchiliklar (bitta qarz oluvchi yoki o‘zaro bog‘liq qarz oluvchilar guruhi bo‘yicha) bilan bog‘liq bo‘lgan, yirik tavakkalchilikning jami summasi Bankning birinchi darajali kapitalining 10 foizi va undan ko‘pini tashkil etadigan bitimlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023-yil 18-aprelda 3427-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Banklar va bank guruhlarida risklarni

boshqarish tizimiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizamning 29-bandiga muvofiq, qonunchilikda belgilangan tartibda Bank Kengashi ko'rib chiqishiga kiritilsin.

6.3. "Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzishga oldindan rozilik berish to'g'risida"gi masalani Bank aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a'zo, shundan:

"yoqlab" – 10 ta ovoz, "qarshi" – 1 ta ovoz, "betaraf" – yo'q.

Qarshi: M. Ansell. Alohida fikr ilova qilinadi.

7. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonida Mikro va kichik biznes bo'yicha Bosh direktor lavozimini joriy etish nazarda tutilsin.

7.1. Bank Boshqaruvining 2026-yil uchun mikro va kichik biznes yo'nalishi bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi uchun T. Norovga mas'uliyat yuklash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

7.2. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangandan so'ng Mikro va kichik biznes bo'yicha Bosh direktor lavozimiga T. Norovni tayinlash unga yuklatilgan barcha vazifalarni, shu jumladan 2026-yil uchun biznes-reja ko'rsatkichlarini bajarish sharti bilan amalga oshirilsin.

8. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonida Chakana biznes bo'yicha Bosh direktor lavozimini joriy etish nazarda tutilsin.

8.1. Bank Boshqaruvining 2026-yil uchun chakana biznes yo'nalishi bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi uchun F. Xodjayevga mas'uliyat yuklash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

8.2. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangandan so'ng Chakana biznes bo'yicha Bosh direktor lavozimiga F. Xodjayevni tayinlash unga yuklatilgan barcha vazifalarni, shu jumladan 2026-yil uchun biznes-reja ko'rsatkichlarini bajarish sharti bilan amalga oshirilsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a'zo, shundan:

"yoqlab" – 11 ta ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

9. Ismoilov Shahbozxon Kamolovichni Xodimlar va tashkiliy rivojlanish departamenti direktori lavozimiga nomzodi tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a'zo, shundan:

"yoqlab" – 11 ta ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

10. Bank Kengashi qoshidagi Risklar, yirik va affillangan bitimlar, komplayens nazorati qo'mitaning 2025–2026 korporativ yil yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a'zo, shundan:

"yoqlab" – 11 ta ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q.

11. Bank Kengashi qoshidagi Strategiya va investitsiyalar qo‘mitaning 2025–2026 korporativ yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a’zo, shundan:

“yoqlab” – 11 ta ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

12. Bank Kengashi qoshidagi Audit qo‘mitasining 2025–2026 korporativ yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a’zo, shundan:

“yoqlab” – 11 ta ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

13. Bank Kengashi qoshidagi Raqamlashtirish va kiberxavfsizlik qo‘mitasining 2025–2026 korporativ yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari:

Ovoz berganlar: 11 nafar a’zo, shundan:

“yoqlab” – 11 ta ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q.

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

Kotib

D. Abdukadirov

Bayonnoma rasmiylashtirilgan sana: 2025-yil “ 13 ” iyul.